

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro'yxatga olindi
№ 980
2019 yil «__» ____



SANOAT GEOGRAFIYASI FANINING
ISHCHI O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 1000000 - Gumanitar soha
Ta'lif sohasi: 140000 – Tabiiy fanlar
Ta'lif yo'nalishi: 5140600-“Geografiya” bakalavr ixtisosи uchun

Samarqand- 2019

Fanning ishchi o'quv dasturi namunaviy o'quv reja va o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:

Jumaboyev T.J. - SamDU Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrasi dotsenti, g.f.n.
Badalov O'.B. - SamDU Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrasi assistenti.

Taqrizchilar:

Alibekov L.A. – SamDU Geografiya va tabiiy resurslar kafedrasi professori, g.f.d.
Qodirov M.A.. – SamDU Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrasi dotsenti, g.f.n.

Fanning ishchi o'quv dasturi ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrasining 2019 yil _____
dagi №____ son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet Kengashida muhokama
kilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri

dots. M.A.Kadirov

Fanning ishchi o'quv dasturi Geografiya va ekologiya fakulteti Kengashida muhokama etilgan
va foydalanishga tavsiya kilingan (2019 yil _____dagi №____-sonli bayonnomma)

Fakultet uslubiy kengashi raisi:

dots. T.J. Jumaboyev

Fakultet dekani

dots.L.Z.Ibragimov

Kelishildi:

O'quv uslubiy boshqarma boshlig'i

dots.B.Aliqulov

Kirish

“Sanoat geografiyasi” fani talabalarda iqtisodiyotning tarmoqlar tarkibi hamda ishlab chiqarishni joylashtirish omillari, xo‘jalikni joylashtirishning asosiy nazariy konsepsiyalari haqidagi bilimlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Sanoatni hududiy tashkil etish mazkur fan soxasining asosiy tadqiqot ob’ektlaridan biridir.

Ushbu kursda “geografik mehnat taqsimoti”, “xalqaro mehnat taqsimoti”, “ishlab chiqarishni joylashtirish omillari”, “ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etish shakllari”, “ishlab chiqarishni hududiy tashkil etish shakllari” tushunchalarining mazmuni olib beriladi, alohida tarmoqlarni joylashtirishning hududiy qonuniyatlarini aniqlanadi.

Mazkur o‘quv predmeti oliy o‘quv yurtlarining geografiya mutaxassisligi talabalariga mo‘ljallangan bo‘lib, yuqori malakali geograf kadrlar tayyorlashda katta ahamiyatga ega.

O‘quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarga sanoat geografiyasi va uning tarmoklar tarkibi va jaxonda sanoat ishlab chikarish tarakkiyoti va xududiy joylanishi to‘g‘risida bilim, ko‘nikma va malaka shakllantirishdir.

Fanning vazifasi – talabalarga sanoat geografiyasining qonuniyatlarini haqida bilimlar berish, uning tarmok tarkibini tahlil qilish va buning asosida xulosalar chiqarishni o‘rgatishdan iborat.

Fan bo‘yicha talabalarning bilimiga, ko‘nikma va malakasiga qo‘yiladigan talablar

“Sanoat geografiyasi” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- sanoat ishlab chikarish va sanoat va qishloq xujalik tarmoklari tarkibi va ularga ta’sir e’tuvchi omillar va joylashish qonuniyatlarini bilishi;
- sanoat ishlab chikarish, xududiy joylashtirish va ishlab chikarishning ijtimoiy tashkil etish shakllari va sanoat dinamikasi xamda uning xududiy joylanishi va rivojlanishi tahlil qilish; sanoat tarkibi bo‘yicha kartalarni chizish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- sanoat geografiyasi kartalarini tahlil qilish, ulardan samarali foydalanib, yangi bilimlar olish, olgan bilimlarini o‘quvchilarga tushunarli qilib etkazish malakalariga ega bo‘lishi kerak.

Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

“Sanoat geografiyasi” – tanlama fan. Dasturni amalga oshirish ishchi o‘quv rejasida jalashtirilgan jahon geografiyasi, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari, hududiy majmualarning nazariy asoslari, O‘zbekiston geografiyasi) fanlaridan etarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlik talab etiladi.

Fanning ishlab chiqarishdagi o‘rni

Sanoat tarmoklari va ularni xududiy joylashtirish haqidagi nazariy bilimlar xalq xo‘jaligining turli sohalarida muhim amaliy ahamiyatga ega. Jumladan, kichik va urta sanoat korxonalarini xududiy joylashtirishda ishlab chikarishning ijtimoiy shakllarini bilish, tarmoklar tarkibi va geografiysi, oliy o‘quv yurtlari, ilmiy-tadqiqot muassasalarida ushbu soha mutaxassislariga talab katta. Sanoat geografiyasi bo‘yicha olingan ko‘nikmalardan o‘rta umumta‘lim maktablari o‘qituvchilar o‘z o‘lkalarida sanoat ishlab chikarish haqidagi bilimlarni o‘quvchilarga etkazishda foydalaniladi.

Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarning “Sanoat geografiyasi” fanini o‘zlashtirishlari uchun o‘qitishning ilg‘or va zamonaviy usullardan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Ma‘ruza va amaliy mashg‘ulotlar chog‘ida mos ravishdagi ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

“Sanoat geografiyasi” fanni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- sanoat geografiyasi nazariyasi bo‘limiga tegishli ma‘ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalaridan;
- sanoat tarmoklari va tarkibini, sanoatni va qishloq xujaligini xududiy joylashtirish va uning jaxon xujaligida tutgan rolini o‘rganish mashg‘ulotlarida aqliy xujum, guruhli fikrlash va boshqa pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

Kurs bo‘yicha informatsion ta’minotni dasturda ko‘rsatilgan asosiy va qo‘srimcha darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, elektron manbalar, dissertatsiyalar, monografiyalar, xorijiy adabiyotlar, statistik

ma'lumotlar va Internet ma'lumotlari tashkil etadi. Amaliy mashg'ulotlar jarayonida fanga tegishli bo'lgan tarqatma materiallar, karta, chizma va jadvallar, slaydlardan foydalanish nazarda tutiladi.

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy usullari, yangi pedagogik va axborot – kommunikatsiya vositalari qo'llanilishi mo'ljallangan. Dasturdagi barcha ma'ruza mavzularini o'tishda ta'limning zamonaviy usullaridan keng foydalanish, o'quv jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish samarali natija beradi. Bu borada zamonaviy pedagogik texnologiyaning "Bumerang", "Elpig'ich", "Aqliy xujum", "Masofaviy ta'lim", "Zanjir", "Klaster" hamda "Muammoli ta'lim" texnologiyasining "Munozarali dars" kabi usullarini qo'llash o'rinnlidir.

SHaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum birta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv. SHaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta'lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni ob'ektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi. Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O'qitish vositalari: o'qitishning an'anaviy shakllari (garslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalarini.

Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blits-so'rov, oralig' va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejorashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotida ham butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi. "Sanoat geografiyasini" fanini o'qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan elektron jadvallar dasturlaridan foydalaniladi. Ayrim mavzular bo'yicha talabalar bilimini baholash test asosida va kompyuter yordamida bajariladi. "Internet" tarmog'idagi rasmiy iqtisodiy ko'rsatkichlaridan foydalaniladi, tarqatma materiallar tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch so'z va iboralar asosida oralig' va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi.

"Sanoat geografiyasini" fanidan mavzular va saotlar bo'yicha taqsimlanishi:

| Nº | Mavzular nomi | Ma'ruza |
|----|---|---------|
| 1 | Sanoat geografiyasining ob'ekti, predmeti, maqsad va vazifalari | 2 |
| 2 | Sanoat tarmoqlari hududiy joylashishi, rivojlanishiga tabiiy va iqtisodiy omillarning ta'siri | 2 |

| | | |
|-------------|--|-----------|
| 3 | YOqilg‘i - elektroenergetika sanoati tarmoqlar tarkibi | 2 |
| 4 | Metallurgiya va mashinasozlik sanoati | 2 |
| 5 | Kimyo sanoati | 2 |
| 6 | Qurilish materiallari va o‘rmon sanoati | 2 |
| 7 | Engil sanoat tarmoqlari geografiyasi | 2 |
| 8 | Oziq-ovqat sanoati | 2 |
| JAMI | | 16 |

Asosiy qism: Fanning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Asosiy qismda (maruza) fanni mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosida tushunchalar va tezislar orqali olib beriladi. Bunda mavzu bo‘yicha talabalarga DS asosida etkazilishi zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar to‘la qamrab olinishi kerak. Asosiy qism sifatiga qo‘yiladigan talab mavzularning dolzarbligi, ularning ish beruvchilar talablari va ishlab chiqarish ehtiyojlariga mosligi, mamlakatimizda bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy va demokratik o‘zgarishlar, iqtisodiyotni erkinlashtirish, iqtisodiy huquqiy va boshqa sohalardagi islohatlarning ustuvor masalalarini qamrab olishi hamda texnologiyalarning so‘ngi yutuqlari e’tiborga olinishi tavsiya etiladi.

Ma’ruza mashg‘ulotlari

1-mavzu. Sanoat geografiyasining ob’ekti, predmeti, maqsad va vazifalari

Sanoat geografiyasining ob’ekti, predmeti, maqsad va vazifalari. Sanoat geografiyasini fanlar tizimida tutgan o‘rni va aloqalari. Sanoat geografiyasining shakllanishi va rivojlanishi. Sanoatning xo‘jalik rivojlanishidagi o‘rni va ahamiyati

Sanoat ishlab chiqarish konsentratsiyasining mohiyati, mazmuni, shakllari, ko‘rsatkichlari. Kombinatlashirish, uning shakllari va ko‘rsatkichlari. Ixtisoslashtirish, uning shakllari va ko‘rsatkichlari. Kooperativlashtirish, Kombinatlashirish, uning shakllari va ko‘rsatkichlari.

Rayon hosil qiluvchi etakchi omil hududiy mehnat taqsimoti ekanligi. Iqtisodiy rayon. Sanoatning hududiy tashkil qilish omillari va majmualari. Sanoatning hududiy tashkil qilish xususiyatlari. Sanoat tugunlari va markazlari, tarmoqlararo majmular.

2-mavzu. Sanoat tarmoqlari hududiy joylashishi, rivojlanishiga tabiiy va iqtisodiy omillarning ta’siri

Sanoat tarmoqlarini joylashtirishda hududning ahamiyati. Tabiiy boyliklar. Iqlim. Suv bilan ta’minlanish imkoniyatlari. Organik olam. Sanoatning tabiatga ta’siri.

Sanoatni rivojlanishida aholining tutgan o‘rni. SHaharlarning sanoat tarmoqlarini joylashishidagi ahamiyati. Energetikaning sanoat tarmoqlarini joylashishiga ta’siri. Sanoat tarmoqlarini hududiy joylashishida transportning tutgan o‘rni. Sanoatning tarmoqlar tarkibi.

3-mavzu. YOqilg‘i va elektroenergetika sanoati tarmoqlar tarkibi

YOqilg‘i sanoati. Mineral yoqilg‘i hozirgi zamon xo‘jaligida energiyaning asosiy manbai va sanoat xom ashyosi ekanligi. YOqilg‘i sanoati korxonalari geografiyasiga xom ashyo zahiralarining ta’siri.

Neft sanoati. Neft sanoatining tarkib topishi va ahamiyati. Neftni qazib olish va qayta ishslash. Neft maxsulotlari va uni qo‘llash. Neft va neft maxsulotlarini tashish va saqlash. Neftni qayta ishslash korxonalari va ularning hududiy joylashish xususiyati.

Gaz sanoati. Gaz sanoatining shakllanishi va ahamiyati. YOnuvchi gazning turlari. Tabiiy gazning tarkibi va undan foydalanish. Gazni qazib olish, tashish va saqlash. Gaz sanoatining rivojlanishi.

Ko‘mir sanoati. Ko‘mir qazib olish korxonalarining joylashuvi. Qazib olinadigan ko‘mirning turlari va ularning tarkibi. Ko‘mirni qazib olish usullari. Ko‘mirni kokslash. Ko‘mirdan iqtisodiyotda foydalanish.

Elektroenergetikaning tarkibi va ahamiyati. Issiqlik elektr stansiyalar. Ularning hududiy joylashishiga ta'sir etuvchi omillar. Atom elektr stansiyalar va ularning joylashishiga ta'sir ko'rsatuvchi tabiiy, iqtisodiy omillar. GES lar, ularning joylashishidagi o'ziga xos xususiyatlar. Muqobil energiya manbalari. SHamol energiyasi. Quyosh energiyasi. Geotermik va dengiz energiyasi. Elektroenergiyani uzatish. Elektroenergetika sanoatining rivojlanish istiqbollari.

4-mavzu. Metallurgiya va mashinasozlik sanoati

Qora metallurgiya sanoati. Tarmoqning joylashishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Qora metallar, ularning tarkibi va olish usullari. Temir rudalari. CHo'yan po'lat va prokat ishlab chiqarish.

Rangli metallurgiya sanoati. Rangli metallarning iqtisodiyotda tutgan o'rni. Rangli metallurgiyaning tarkibi va uni joylashishiga ta'sir etuvchi omillar. Rangli metallurgiya xom ashysining o'ziga xos xususiyatlari. Rangli metallarni boyitish. Mis, nikel, qalay va alyumin ishlab chiqarish. Rangli metall ishlab chiqarish korxonalarining hududiy joylashuvi.

Tarmoqning ahamiyati, xom ashyo manbai, tarkib topishi. Mashinasozlikni joylashtirishga ta'sir etuvchi omillar. Mashinasozlikning tarmoqlar tarkibi. YUqori texnologik tarmoqlar. YUqori texnologik tarmoqlarning vujudga kelishi va hududiy xususiyati.

5-mavzu. Kimyo sanoati.

Tarmoqning xom ashyo bazasi, turli tarmoqlarining tarkib topishi. Kimyo sanoati korxonalarining joylashuvi, ishlab chiqariladigan mahsulotlar (o'g'itlar, kislotalar,tolalar va boshqalar). Tarmoq korxonalari joylashishining geografik jihatlari.

6 -mavzu. Qurilish materiallari va o'rmon sanoati.

Tarmoqning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar. Qurilish material-lari sanoati korxonalarining joylashuvi, ishlab chiqariladigan mahsulot-lar. Cement ishlab chiqarish. YOg'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz sanoati.

7-mavzu. Engil sanoat tarmoqlari geografiyasi.

Engil sanoatning shakllanishi va tarmoqlar tarkibi. To'qimachilik sanoati. To'qimachilik sanoatining asosiy markazlari. Ip gazlama ishlab chiqaruvchi etakchi davlatlar. Tikuvchilik sanoati. Ko'n-poyabzal sanoati.

12-mavzu. Oziq-ovqat sanoati.

Sanoat tarmoqlarini joylashtirishga ta'sir etuvchi omillar.Un-yorma sanoati. Go'sht va go'shtni qayta ishlash sanoati. SHakar sanoati. CHoy sanoati. O'simlik va hayvon yog'i ishlab chiqarish. Tamaki sanoati. Vino sanoati. Bاليqchilik sanoati.

13-mavzu. Agroindustrial sipli.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Tabiiy sharoit va tabiiy resurslarning sanoat tarmoqlari joylashishi, rivojlanishiga ta'siri
2. Iqtisodiy-ijtimoiy omillarning sanoatni joylashishi, rivojlanishiga ta'siri.
3. YOqilg'i sanoati va uning tarmoqlar tarkibi, hududiy tarkibini tahlil qilish.
4. Elektroenergetika sanoatining tarmoqlari va rivojlanishi.
5. Qora metallurgiya sanoati uni joylashtirishning o'ziga xos xususiyati.
6. Rangli metallurgiya sanoati tarmoqlar tarkibi va bugungi kundagi rivojlanishi statistik ma'lumotlar asosida tahlili.

7. Mashinasozlik sanoati tarmoqlari.
8. Kimyo sanoatini xo‘jalikdagi ahamiyati va tarmoqlari.
9. Qurilish materiallari sanoati.
10. O‘rmon sanoati va uning hududiy xususiyatini tahlil qilish.
11. Engil sanoatning tarmoqlar tarkibi va bugungi kundagi hududiy xususiyati.
12. Oziq-ovqat sanoati.
13. Sanoat ishlab chiqarishini ijtimoiy tashkil etish shakllari.
14. Sanoat tarmoqlarini joylashtirishga ta’sir etuvchi omillar.
15. O‘zbekiston Respublikasi sanoat tarmoqlarini statistik ma’lumotlr asosida tahlil qilish.

Amaliy mashg‘ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem guruhga bitta o‘qituvchi tomonidan o‘tkazilishi lozim. Mashg‘ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o‘tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llanishi maqsadga muvofiq.

Amaliy mashg‘ulotlarning mavzulari

| № | Mavzular nomi | Amaliyot mavzulari |
|----------|---|---------------------------|
| 1 | Yoqilg‘i konlarini yozuvsız kartaga tushirish | 2 |
| 2 | Elektroenergiya sanoatining joylashuvini yozusiz kartaga tushirish. | 2 |
| 3 | Qora va rangli metallurgiya sanoati uni joylashtirishning o‘ziga xos xususiyati | 2 |
| 4 | Mashinasozlik sanoati tarmoqlari va ularning rivojlanish istiqbollari | 2 |
| 5 | Kimyo sanoati tarmoqlari | 2 |
| 6 | Yengil va oziq-ovqat sanoait korxonalarini yozusiz kartaga tushirish | 2 |
| | Jami | 12 |

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

“Sanoat geografiyasi” fani bo‘yicha talabaning mustaqil ta’limi shu fanni o‘rganish jarayonining tarkibiy qismi bo‘lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to‘la ta’minlangan. Talabalar auditoriya mashg‘ulotlarida professor-o‘qituvchilarining ma’ruzasini tinglaydilar, misol va masalalar echadilar. Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konspekt qiladi, uy vazifa sifatida berilgan misol va masalalarini echadi. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o‘rganish maqsadida qo‘srimcha adabiyotlarni o‘qib referatlar tayyorlaydi hamda mavzu bo‘yicha testlar echadi. Mustaqil ta’lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi.

Uyga vazifalarni bajarish, qo‘srimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o‘rganish, kerakli ma’lumotlarni izlash va ularni topish yo‘llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanimib ma’lumotlar to‘plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to‘garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanimib ilmiy maqola va ma’ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlanadir. SHuning uchun ham mustaqil ta’limsiz o‘quv faoliyati samarali bo‘lishi mumkin emas. Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg‘ulot olib boruvchi o‘qituvchi tomonidan, konspektlarni va mavzuni o‘zlashtirish darajasini tekshirish va baholash esa ma’ruza darslarini olib boruvchi o‘qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi “Sanoat geografiyasi” fanidan mustaqil ish majmuasi fanning barcha mavzularini qamrab olgan va quyidagi mavzu ko‘rinishida shakllantirilgan.

Talabalar mustaqil ta’limning mazmuni va xajmi

| № | Mustaqil ish mavzulari | Berilgan topshiriqlar | Hajmi |
|----------|-------------------------------|------------------------------|--------------|
| | | | |

| | | | |
|----|--|--|-----|
| 1 | M.Porterning iqtisodiy klasterlar konsepsiysi | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 10 |
| 2 | N.N.Kolosovskiyning hududiy ishlab chiqarish majmualari to‘g‘risidagi nazariyasi | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 10 |
| 3 | Sanoatning hududiy majmualari | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 10 |
| 4 | Sanoat tarmoqlari va ularni joylashtirishga ta’sir etuvchi omillar | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 10 |
| 5 | Transport tarmoqlarining joylanish omillari | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 10 |
| 6 | Og‘ir sanoatni joylashuviga ta’sir qiluvchi omillar | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 10 |
| 7 | Sanoat tarmoqlarini joylashuvida transportning tutgan o‘rnini | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 10 |
| 8 | Sanoat tarmoqlari joylashuvining ekologik jihatlari. | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 10 |
| 9 | O‘zbekistonda mashinasozlikning rivojlanishi | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 10 |
| 10 | Sanoat rayonlari | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 10 |
| 11 | Angren-Olmaliq tog‘-kon sanoati rayoni | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 10 |
| 12 | Transport va hududiy majmualar | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 10 |
| 13 | Agrosanoat majmuasi | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 10 |
| 14 | Qishloq xo‘jaligi va uning tarmoqlari | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 10 |
| | Jami | | 140 |

Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi

“Sanoat geografiyasi” fanidan talabalar bilimini reyting tizimi asosida baholash mezoni

“Sanoat geografiyasi” fani bo‘yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma’lumotlar fan bo‘yicha birinchi mashg‘ulotda talabalarga e’lon qilinadi. Fan bo‘yicha talabalarning bilim saviyasi va o‘zlashtirish darajasining Davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini ta’minalash uchun quyidagi nazorat turlari o’tkaziladi: joriy nazorat (JN) – talabaning fan mavzulari bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy mashg‘ulotlarda og‘zaki so‘rov, test o’tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollekvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakkarda o’tkazilishi mumkin; oraliq nazorat (ON) – semestr davomida o‘quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o‘z ichiga olgan) bo‘limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat bir semestrda ikki marta o’tkaziladi va shakli (yozma, og‘zaki, test va hokazo) o‘quv faniga ajratilgan umumiylashtirish soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi; yakuniy nazorat (YAN) – semestr yakunida muayyan fan bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni talabalar tomonidan o‘zlashtirish darajasini baholash usuli.

YAkuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan “YOzma ish” shaklida o’tkaziladi. ON o’tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o’rganib boriladi va uni o’tkazish tartiblari buzilgan hollarda, ON natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda ON qayta o’tkaziladi. Oliy ta’lim muassasasi rahbarining buyrug’i bilan ichki nazorat va monitoring bo’limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida YAN ni o’tkazish jarayoni muntazam ravishda o’rganib boriladi va uni o’tkazish tartiblari buzilgan hollarda, YAN natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda YAN qayta o’tkaziladi. Talabaning bilim saviyasi, ko’nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan bo’yicha o’zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi. “Sanoat geografiyasi” fani bo’yicha talabalarning semestr davomidagi o’zlashtirish ko’rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi. Ushbu 100 ball baholash turlari bo’yicha quyidagicha taqsimlanadi: YA.N.-30 ball, qolgan 70 ball esa J.N.-35 ball va O.N.-35 ball qilib taqsimlanadi.

| Ball | Baxo | Talabalarning bilim darajasi |
|--------|------------|---|
| 86-100 | A’lo | Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo’llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo’lish. |
| 71-85 | YAxshi | Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo’llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo’lish. |
| 55-70 | Qoniqarli | Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish Tasavvurga ega bo’lish. |
| 0-54 | Qoniqarsiz | Aniq tasavvurga ega bo’lmaslik. Bilmaslik. |

Fan bo’yicha saralash bali 55 ballni tashkil etadi. Talabaning saralash balidan past bo’lgan o’zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi. Talabalarning o’quv fani bo’yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi. Talabaning fan bo’yicha reytingi quyidagicha aniqlanadi: O, bu erda: V- semestrda fanga ajratilgan umumiy o’quv yuklamasi (soatlarda); O’- fan bo’yicha lashtirish darajasi (ballarda). Fan bo’yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to’plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi. Joriy JN va oraliq ON turlari bo’yicha 55bal va undan yuqori balni to’plagan talaba fanni o’zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo’yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo’l qo’yiladi. Talabaning semestr davomida fan bo’yicha to’plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to’plagan ballari yig’indisiga teng. ON va YAN turlari kalender tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o’tkaziladi. YAN semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o’tkaziladi. JN va ON nazoratlarda saralash balidan kam ball to’plagan va uzrli sabablarga ko’ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so’nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo’lgan muddat beriladi.

Talabaning semestrda JN va ON turlari bo’yicha to’plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo’lsa yoki semestr yakuniy joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo’yicha to’plagan ballari yig’indisi 55 baldan kam bo’lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi. Talaba nazorat natijalaridan norozi bo’lsa, fan bo’yicha nazorat turi natijalari e’lon qilingan vaqtidan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimmomasiga ko’ra rektor buyrug’i bilan 3 (uch) a’zodan kam bo’lmagan tarkibda apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi. Apellyasiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko’rib chiqib, shu kunning o’zida xulosasini bildiradi. Baholashning o’rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o’tkazilishi hamda

rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o'quv-uslubiy boshqarma hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

| | Ko'rsatkichlar | ON ballari | | |
|---|--|------------|------|------|
| | | maks | 1-ON | 2-ON |
| 1 | Darslarga qatnashganlik darajasi. Ma'ruza darslaridagi faolligi, konspekt daftalarining yuritilishi va to'liqligi. | 15 | 0-7 | 0-8 |
| 2 | Talabalarning mustaqil ta'lif topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli bajarishi va o'zlashtirish. | 10 | 0-5 | 0-5 |
| 3 | Og'zaki savol-javoblar, kolokvium va boshqa nazorat turlari natijalari bo'yicha | 10 | 0-5 | 0-5 |
| | Jami ON ballari | 35 | 0-17 | 0-18 |

Talabalar JN dan to'playdigan ballarning mezonlari

| | Ko'rsatkichlar | JN ballari | | |
|---|--|------------|------|------|
| | | maks | 1-ON | 2-ON |
| 1 | Darslarga qatnashganlik va o'zlashtirishi darajasi. Amaliy mashg'ulotlardagi faolligi, amaliy mashg'ulot daftalarining yuritilishi va holati | 15 | 0-7 | 0-8 |
| 2 | Mustaqil ta'lif topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi. Mavzular bo'yicha uy vazifalarini bajarilish va o'zlashtirishi darajasi. | 10 | 0-5 | 0-5 |
| 3 | YOZMA nazorat ishi yoki test savollariga berilgan javoblar | 10 | 0-5 | 0-5 |
| | Jami JN ballari | 35 | 0-17 | 0-18 |

YAKUNIY nazorat "YOZMA ish" shaklida belgilangan bo'lsa, u holda yakuniy nazorat 30 ballik "YOZMA ish" variantlari asosida o'tkaziladi. Agar yakuniy nazorat markazlashgan test asosida tashkil etilgan bo'lib fan bo'yicha yakuniy nazorat "YOZMA ish" shaklida belgilangan bo'lsa, u holda yakuniy nazorat quyidagi jadval asosida amalga oshiriladi

| | Ko'rsatkichlar | YAN ballari | |
|---|---|-------------|-------------------|
| | | maks | O'zgarish oraligi |
| 1 | Fan bo'yicha yakuniy yozma ish nazorati | 6 | 0-6 |
| 2 | Fan bo'yicha yakuniy test nazorati | 24 | 0-24 |
| 3 | Jami | 30 | 0-30 |

YAKUNIY nazoratda "YOZMA ish"larni baholash mezoni

YAKUNIY nazorat "YOZMA ish" shaklida amalga oshirilganda, sinov ko'p variantli usulda o'tkaziladi. Har bir variant 2 ta nazariy savol va 4 ta amaliy topshiriqdan iborat. Nazariy savollar fan bo'yicha tayanch so'z va iboralar asosida tuzilgan bo'lib, fanning barcha mavzularini o'z ichiga qamrab olgan. Har bir nazariy savolga yozilgan javoblar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi 0-3 ball oralig'ida baholanadi. Amaliy topshiriq esa 0-6 ball oralig'ida baholanadi. Talaba maksimal 30 ball to'plashi mumkin. YOZMA sinov bo'yicha umumiylashtirish ko'rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga qo'yilgan o'zlashtirish ballari qo'shiladi va yig'indi talabaning yakuniy nazorat bo'yicha o'zlashtirish bali hisoblanadi.

Dasturning informatsion –uslubiy ta'minoti

Mazkur fanning o'qitish jarayonida ta'lifning zamонавиъи usullari, pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llanilishi nazarda utilgan. Ma'ruza va Amaliy mashg'ulotlarda «Baxsh-munozara», «Aqliy xujum», «Munozarali dars» metodlaridan hamda darsliklar, o'quv

qo'llanmalari, elektron manbalar, monografiyalar, xorijiy adabiyotlar va Internet ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Asosiy adabiyotlar

1. Gorkin A. P. Territorialnaya organizatsiya promishlennogo proizvodstva v razvityx stranax v postindustrialnuyu epoxu. Uchebnoe posobie. – M., 2012 g.
2. Rodionova I.A. Mirovaya ekonomika: industrialnyi sektor. M., 2010 g.
3. Saliev A.S., YAnchuk S.L. Razmeshchenie proizvoditelnix sil i polyarizovannoe razvitiye Respublikii Uzbekistan. -T.: NUUz, 2005.
4. Soliev A.S. Hududiy majmualarning nazariy asoslari. -T., 2006.

Qo'shimcha adabiyotlar

5. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
6. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi // Xalq so'zi gazetasi 2017 yil 16 yanvar, № 11.
7. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz.-T.:O'zbekiston, 2017.
8. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.-T O'zbekiston 2017.
9. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruza 2016-yil 7-dekabr.- T., O'zbekiston 2017.
10. Baklanov P.YA. Territorialnye struktury xozyaystva v regionalnom upravlenii.-M.:Nauka, 2007.
11. Gladkiy YU.N., CHistobaev A.I. Osnovy regionalnoy politiki. -SPB., 1998.
12. Granberg A.G. Osnovy regionalnoy ekonomiki.-M.:Nauka, 2007
13. Kolosovskiy N.N. Izbrannyye trudy. -Smolensk: Oykumena, 2006. Martynov V.L., Faybusovich E.L. Sotsialno-ekonomiceskaya geografiya sovremennoogo mira. –M.: Akademiya, 2010.
14. Osipov V.A. Uchenie o territorialno-proizvodstvennyx kompleksax. Uchebnoe posobie.- Tyumen, 2000.
15. Prostranstvennye struktury mirovogo xozyaystva. -M., 1999.
16. Regionalnaya ekonomika. Pod red. T.G Morozovoy. -M., 1998.
17. Soliev A. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish. Ma'ruzalar matni. -T., 2001.
18. Soliev A. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodlar va amaliyat. -T.: Kamalak, 2013.
19. Rylshard Domanskiy. Ekonomicheskaya geografiya: dinamicheskiy aspekt. Pers polsk.-M.: Novyy xronograf, 2010
20. "Hududiy majmualarning nazariy asoslari" fani bo'yicha tayyorlangan o'quv-uslubiy majmua. O'zMU ichki tarmog'i, 2014.

Internet saytlari:

21. www.Ziyo.net
22. Jahon savdo tashkiloti (World Trade Organisation, WTO). URL: <http://www.wto.org/>
23. Evrostat. URL: <http://www.europa.eu.int/comm/eurostat>.
24. <http://stat.uz/>

